
“PIYOZCHILIK” MAHALLASIDAGI 9 TA KO’CHA ASFALT QILINMOQDA

Toshloq tumanida fuqarolar turmush sharoitini yaxshilash borasidagi sa’y-harakatlar, Prezidentimiz tomonidan 2022 yil 25 oktyabrda qabul qilingan «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi qaroridan so’ng yanada jadal sur’atlarda olib borilmoqda.

Ayni kunlarda tumandagi mahallalarda ichki yo’llarni asfaltlash ishlari bajarilmoqda. “Piyozchilik” mahalla fuqarolar yig’inidagi 9 ta ko’chalarda 8,5 kilometrdan ortiq yo’l sifatli qilib asfalt qilinmoqda. Bunyodkorlik ishlari uchun qaror asosida Davlat byujetidan 4 milliard 250 million so’m mablag’ ajratilgan.

Tez kunlarda mahalla aholisi va transport harakatlari uchun qishloqda qulay sharoitlar yaratiladi.

2023-03-13 16:54:51